Российский университет дружбы народов

Инновационные подходы в современной науке

# AJDODLAR ME'ROSI VA MILLIY QADRIYATLARNI ULUG'LASH

https://doi.org/10.5281/zenodo.6431419

**Raxmatova Zulfizar Gulmurodovna**
*Jizzax viloyati, Baxmal tumani*
*16- DMTT tarbiyachisi,*
**Samadova Marhabo Abdumanonovna**
*Jizzax viloyati, Baxmal tumani*
*16- DMTT, tarbiyachisi*

**Annotatsiya:** *Bugun milliy madaniyatimiz, ilm-fan, adabiyot va san'atimiz yuksalishiga ulkan hissa qo'shgan ma'rifatparvar ajdodlarimizning boy merosini o'rganish, targ'ib etish, uning mazmun-mohiyatini yosh avlod ongu shuuriga singdirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.Ushbu maqola, buyuk ajdodlar merosi hamda milliy qadriyatlarni ulug'lash mavzusi asosida yozildi.*

**Kalit So'zlar**: *umuminsoniy mezonlar, milliylik, ma'naviyat, ajdodlar merosi, obodonchilik, Muhammad Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad Farg'oniy,Bahouddin Naqshband, nashriy kitoblar, qo'lyozmalar*

**Kirish.**

Istiqlol yillarida mamlakatimizda vijdon erkinligi, diniy bag'rikenglik tamoyillarini ta'minlash, ularning qonuniy asoslarini yaratish va rivojlantirish masalalariga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Imon-e'tiqod, mehr-oqibat, muruvvat kabi fazilatlar xalqimiz ma'naviy hayotini yuksaltirishda muhim asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Ajdodlar merosi va ularni qayta tiklash.

Prezidentimiz, Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida milliy urf-odat va qadriyatlarimizni tiklash, muqaddas dinimizni, aziz avliyo va ulamolarimizning boy merosini teran o'rganish, ularning qadamjolarini obod qilish, tarixiy obidalarni asrab-avaylash yo'lida beqiyos ishlar amalga oshirilmoqda. Muhammad Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy kabi allomalarning o'lmas asarlari jahon ilm fani rivojiga ulkan hissa bo'lib qo'shildi. Yusuf Hamadoniy, Ahmad Yassaviy, Abdulxoliq o'ijduvoniy, Bahouddin Naqshband, Najmiddin Kubro singari dunyoga dong taratgan buyuk siymolar insoniyatga komillik yo'lini ko'rsatdi. Muhaddislar Imom Buxoriy, Imom Termiziyning ta'limotida aks etgan komil inson g'oyalari, adolat haqidagi qarashlar jamiyatni ma'naviy-axloqiy jihatdan yuksaltirishga, mustahkamlashga xizmat qildi. Ayniqsa, Imom Buxoriy, Imom Termiziydek yetuk muhaddislar dunyoda Qur'oni karimdan keyingi eng mo''tabar manba hisoblangan hadis to'plamlarini yaratishda benihoya fidoyilik ko'rsatishdi, ibrat bo'lishdi.

Ma’lumki, 2016-2017 yillar Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashida O‘zbekistonning raislik davri hisoblanadi. O‘tgan yilning 18-oktyabrida ushbu organning 43-sessiyasida mazkur davr “Ta’lim va ma’rifat — tinchlik va bunyodkorlik sari yo‘l” shiori ostida o‘tkazilishi ma’lum qilingan edi. Ushbu yo‘nalishdagi tadbirlarning izchil davomi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan qisqa, lekin sermazmun vaqt ichida keng qamrovli ishlar amalga oshirildi. Yurtboshimizning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Surxondaryo, Qashqadaryo, Xorazm, Buxoro va Samarqand viloyatlariga tashriflari davomida joylardagi buyuk allomalarning muqaddas qadamjolarini obod qilish, ularning hayoti, boy ilmiy-ma’naviy merosini chuqur o‘rganish, keng jamoatchilikka yetkazish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi. Shu bilan birga, asrlar davomida ma’naviy boyligimizni o‘zida mujassamlashtirgan qo‘lyozma asarlarni topish, tadqiq etish va nashrga tayyorlash hozirgi kunda dolzarb masalalardan biridir. Bunday ulkan meros yangi avlodlarga katta ilm manbai hamda kelajakdagi tadqiqotlar uchun muhim qo‘llanma sifatida xizmat qiladi. Binobarin, respublikamiz qo‘lyozma fondlarida 100 minglab qo‘lyozmalar saqlanmoqda. Shulardan biri — Imom Al-Buxoriy xalqaro markazi manbalar xazinasidir.

Markazda ilmiy tadqiqot ishlarini yanada rivojlantirish maqsadida ma’naviy merosimiz durdonalari bo‘lgan qo‘lyozma va toshbosma asarlar fondi tashkil etilgan. Yillar davomida Markaz xazinasi yangi asarlar bilan doimiy boyitib borilmoqda. Bu ishlar aholidan xarid qilingan noyob asarlar hamda respublikamiz fuqarolari tomonidan hadya tariqasida taqdim etilgan kitoblar hisobiga amalga oshirilayapti. To‘plangan asarlar, asosan, uch yo‘nalishga ega. Qo’lyozma, toshbosma va zamonaviy nashriy kitoblar. Qo‘lyozmalar mavzu jihatidan islomiy ilmlarning deyarli barcha sohasini qamrab olgan. Mavjud kitoblar, asosan, XIV — XX asrning boshlarida ko‘chirilgan hamda nashr qilingan bo‘lib, ular Qur’oni karimning ko‘plab nusxalari va tafsirlari, hadis hamda hadisshunoslik ilmiga oid manbalar, fiqh, kalom, islom tarixi va falsafasi, mantiq, nahv-sarf ilmlari, nazmiy asarlar, qissalar, hikmatlar, balog‘at ilmiga oid asarlar hisoblanadi. Ayni paytda ushbu qo‘lyozmalar xazinasini kataloglashtirish ishlari olib borilayotir.

Prezidentimizning shu yil 24-maydagi “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bu boradagi sa’y-harakatlarni yangi bosqichga ko‘tarishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Qarorga muvofiq, institut fondlarini saqlash hamda aholi qo‘lida saqlanayotgan qo‘lyozma va boshqa yozma yodgorliklarni xarid qilish hisobidan boyitish maqsadida yozma yodgorliklarni to‘plash, baholash, sotib olish bilan shug‘ullanadigan ekspertlar guruhi hamda maxsus komissiya tuzilmoqda. Bu esa noyob qo‘lyozma, qimmatbaho toshbosma kitoblarni to‘plab, ularni tahlil qilish, o‘rganish, tariximizga oid ma’lumotlar olish va jumboqlarni yechishda alohida o‘rin tutadi. Aytish joizki, Markaz ilmiy xodimlari yurtimizdan yetishib chiqqan allomalar hayotini hamda ularning ilmiy-ma’naviy merosini, noyob asarlar, qo‘lyozma va

toshbosma kitoblarni o‘rganish, tadqiq etish maqsadida respublikamizdagi hamda xorijdagi ilmiy-tadqiqot markazlari bilan hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yib, ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirib kelmoqda. O‘tgan davr mobaynida Markaz ilmiy xodimlari tomonidan 50 dan ziyod kitob, risola va monografiyalar nashr etildi. Ajdodlarimiz ma’naviy merosi tarjima qilinib, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz uchun o‘zbek tilida kitoblar tayyorlanayapti. Asosiy vazifalarimizdan biri, bu — mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan diniy xodimlarning bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlashdan iborat. Malaka oshirish o‘quvlari bo‘limida yurtimizdagi masjidlarda faoliyat ko‘rsatayotgan imom-xatiblarning bilim tajribasi, kasb malakasini yuksaltirish hamda dunyoviy fanlarni o‘qitish bo‘yicha o‘quv-uslubiy ishlar tashkil etilayotir.

O’zbekistonda milliy qadriyatlarga e’tibor,hamda ularni targ’ib etish.

O‘zbekiston mustaqilikka erishgandan so‘ng qadriyatlarga e’tibor kuchaydi. Mamlakatimizda umuminsoniy qadriyatlarning ustivorligi e’tirof etildi, milliy qadriyatlar hamda shaxs manfaatlarining umumbashariy talablarga moslashtirish va uyg‘unlashtirish asosiy vazifaga aylandi. Milliy ma`naviy qadriyatlar – ijobiy axloqiy sifatlarni takomil-lashtirish, davlat va millat rivojiga to`g`anoq bo`ladigan salbiy illatlarni bartaraf etish omilidir. Milliy g`oya va ma`naviy qadriyatlar orasida uzviy aloqadorlik, o`zaro ta`sir mavjud bo`lib, bu quyidagilarda o`z ifodasini topadi:

1.Milliy qadriyatlar milliy g`oya uchun ma`naviy negiz, manba bo`lib xizmat qiladi.

2.Milliy g`oya qadriyatlarni boyitish, yanada yuksak bosqichga ko`tarish, odamlar ongi va qalbiga milliy qadriyatlarni singdirish omili bo`lib hisoblanadi.

3.Milliy g`oya xalqning tub manfaatlari nuqtai nazaridan mavjud ma`naviy qadriyatlarga baho beradi, ijobiy jihatlarni rivojlantirish, salbiy holatlarni inkor etishning ma`naviy mezoni bo`lib maydonga chiqadi. Ma`naviyat, qadriyatlar va milliy g`oya – jamiyat hayotining juda murakkab va serqirra, o`zaro uzviy aloqadorlikda bo`lgan sohalaridir. Shaxs hayotida, umuman insoniyat taraqqiyotida, millat va davlat taraqqiyotining ma`lum davrlarida ma`naviyat va milliy g`oya eng dolzarb, hal qiluvchi omil bo`lib maydogan chiqadi. Demak, qadriyatlarning xilma-xil shakllari mavjud: moddiy va ma`naviy, milliy, mintaqaviy, umumbashariy qadriyatlar jamiyat hayotining sohalari bo`yicha: iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy, qadriyatlar, ijtimoiy ong shakllariga mos keladigan axloqiy, diniy, huquqiy va boshqa qadriyatlar. Millat va elatlarning o`ziga xos tarixiy merosi, san`ati va adabiyoti bilan bir qatorda ularning urf-odat va marosimlari, madaniy munosabat va axloqiy fazilatlari ham ma`naviy qadriyatlar tizimiga kiradi. Bular xalqning o`ziga xosligini saqlab qolishda, yosh avlodni tarbiyalashda, shaxsning ijtimoiylashuvida muhim rol o`ynaydi. Milliy qadriyatlar xalqning kundalik hayoti va turmush tarzida o`ziga xos mezon vazifasini o`taydi. Ushbu qadriyatlar vositasida turli hodisa va holatlarga, yangi paydo bo`layotgan faoliyat turlari va rasm-rusmlarga baho beriladi. Yosh avlodning hayotiy mo`ljallari, «zamon qahramoni» haqidagi tasavvurlari ham

ma`naviy qadriyatlardan kelib chiqib shakllanadi. Milliy g`oyani ob`ektiv anglashda qadriyatlar va ma`naviyat olamini bilish va uni amaliy o`rganish muhim ahamiyatga ega. Har bir qadriyatning mohiyati va ahamiyati tabiat, jamiyat va ruhiy olam hodisalarini bilish, ilmiy umumlashtirish, ijtimoiy va ma`naviy taraqqiyotga ta`sir etish imkoniyatlari asosida belgilanadi. Milliy ma`naviy qadriyatlar ko`p asrlik tarixga ega. O`zbekistondagi tarixiy obidalar, madaniy yodgorliklar yo urf-odat va marosimlarni tahlil qilish, bularning paydo bo`lishi juda qadim zamonlarga borib taqalishini ko`rsatadi. Masalan, «Avesto» bundan 2700 yil muqaddam 12 ming mol terisiga oltin xarflar bilan bitilgan. Bu asar paydo bo`lishi uchun undan avval ham kamida necha ming yillik davr o`tganligi, teran hayotiy tajriba va hikmatlar to`planganligi, shubhasiz. Asar yuksak madaniy hayot, falsafa va fan, hottotlik va mushtariylik rivojlanishi natijasida yaratilganligi uchun ham shu paytgacha o`z qimmatini yo`qotmadi. Davrlar o`tishi bilan milliy ma`naviy qadriyatlar ham o`zgarib, rivojlanib, yangilanib, boyib boradi.

XULOSA.

Yuqorida ko’rib o’tilganlardan xulosa qilib aytganda, qadriyatlarsiz, ajdodlar merosisiz o’zbek xalqini tasavvur etish mushkul.Yurtimizda milliy qadriyat, milliy iftixor ruhini shakllantirish, ajdodlar merosini asrab-avaylash va ularni kelajak avlodga yorqin ranglarda yetkazish uchun bir qancha chora-tadbirlar o’tkazilmoqda. Bularning barchasi xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodni bobokalonlarimiz, aziz-avliyolarning bebaho merosi bilan chuqurroq tanishtirishga qaratilganligi tufayli yanada ahamiyatli. Zero, tarixga hurmat tuyg‘usi, o‘tmishni o‘rganish xalqning o‘zligini anglashdagi muhim omildir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:


1. I.A.Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. To‘la asarlar to‘plami 3 tom. – T. 1996 386 b
2. I.A.Karimov O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.,1997- (137-151) 328 b.
3. Ayniy S. Estaliklar. –T., 1953 312 b.
4. Andreyeva G.M. Sotsialnaya psixologiY. –M.: MGU, 1980.-515 s.
5. Asqarov A.O‘zbek xalqining kelib chiqish tarixidan // xalq ta’limi. –T.,
6. Xayrullayev M. Uyg‘onish davri va sharq mutafakkiri.-T, 1971 312 b.